

O'ZBEKISTONDA XOR SAN'ATI RIVOJLANISHI HAMDA ULARGA HISSA QO'SHGAN KOMPOZITORLAR IJODI

Azatov Sardorbek Elbrusovich

O'zDSMI, "Vokal" kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14329345>

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqa san'atida o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi jozibador janr xor san'ati haqida so'z boradi. Xor janrining yuzaga kelish omillari hamda O'zbekiston hududida xor san'atining shakllanish bosqichlari, ushbu janrning rivojlanishiga hissa qo'shgan kompozitorlar ijodi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Xor, kapella, san'at, jamoa, janr, monodiya, kompozitor, an'ana.

РАЗВИТИЕ ХОРОВОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ И ТВОРЧЕСТВО КОМПОЗИТОРОВ, ВНЕСШИХ В НЕГО ВКЛАД

Аннотация. Это статья о хоровом искусстве – привлекательном жанре, уникальном в музыкальном искусстве. Представлены факторы создания хорового жанра и этапы становления хорового искусства на территории Узбекистана, произведения композиторов, внесших вклад в развитие этого жанра.

Ключевые слова: Хор, а капелла, искусство, сообщество, жанр, монодия, композитор, традиция.

THE DEVELOPMENT OF CHORAL ART IN UZBEKISTAN AND THE WORK OF COMPOSERS WHO CONTRIBUTED TO IT

Abstract. This article is about choral art, an attractive genre that is unique in the art of music. The factors of the creation of the choral genre and the stages of formation of the choral art in the territory of Uzbekistan, the works of composers who contributed to the development of this genre are presented.

Keywords: Chorus, a capella, art, community, genre, monody, composer, tradition.

Xor ijrochiligi – musiqa san'atining qadimiy turlaridan biri bo'lib, uning shakllanishi va rivoj topishi uzoq tarixiy davrlar bilan bog'liq holda taraqqiy topgan.

Barchamizga shunisi ma'lumki, har bir xalqning asrlar osha yuksak orzularini aks ettirgan boy musiqa san'ati bo'lganidek, o'zbek xalqining ham og'zaki musiqa durdonalari mavjud.

Mehnatkash xalqimiz tomonidan og'zaki an'analarda yaratilgan qo'shiqlar yakka va guruh tomonidan aytilib, xalqning yetuk namoyondalari talqinida sayqallanib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan badiiy asarlar o'zbek xalq musiqa ijodini tashkil etadi.

Shuni ham alohida ta'kidlashimiz kerakki, har bir janrning yuzaga kelishida xalq san'ati muhim o'rin tutadi. Ko'hna zamonlardan beri to'y-marosimlarda ijro etiladigan "Yor-yor"lar, yallalar, laparlar jamoa bo'lib ijro etilgan. Ushbu an'anaviy marosim qo'shiqlari erkaklar va ayollar tomonidan unison, ya'ni bir ovozli ijro etilgan. O'zbek xalqining ana shunday an'anaviy folklor qo'shiqlari va ularning azaldan jamoa bo'lib ijro etilishi kelgusida o'zbek xalqi orasida xor havaskorligining, qolaversa, xor san'atining rivojlanishiga zamin bo'ldi.

Qadim zamonlardan beri jamoa bo'lib qo'shiq aytish hamma xalqlarning mehnat faoliyatini, orzu-umidlarini ifodalab berish uchun ishlatilgan. Qo'shiqlar avlod-dan-avlodga og'zaki tarzda qoldirilgan. O'zbekiston hududida erkaklar, ayollar hamda bolalarning birgalikda jamoa bilan qo'shiq aytish an'analari bo'lgan. Ya'ni, turli marosim va sayllarda, ramazon oyida bolalarning qo'shiq aytishi yoki kattalarning zikr tushishi, marsiya qo'shiqlar aytishi kabilar bunga yorqin misoldir. Bolalarning jamoa bo'lib ijro etadigan qo'shiqlari bo'lmish "Laylak keldi", "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga" singari qo'shiqlari barchamizga ma'lumdir.

Bundan tashqari o'zbek milliy musiqasi bo'lmish shashmaqomning nasr qismidagi taronalar ham jamoa bo'lib ijro etilgan. Katta ashulalar ham ushbu misolga dalil bo'la oladi.

O'tmishda So'g'd davlatida professional xor mavjud bo'lgan, keyinchalik Arab iste'losidan keyin bu san'at rivojlanmagan. O'zbek musiqasi asosi bir ovozli bo'lganligi sabab ko'p asrlar davomida ko'p ovozli xor ijrochiligi amalda qo'llanilmagan va professional yakka ijrochilik formasi saqlanib qolgan. Ko'p ovozli xor dastlab musiqali drama va komediyalarda xalq musiqasini xorga moslab qayta ishlagan holda qo'llanildi.

O'zbekistonda shakllangan xor san'atiga nigoh tashlar ekanmiz, xor san'atining rivojlanishiga bir tomondan kompozitorlik ijodiyoti bilan hamkorlik, ikkinchi tomondan esa musiqali teatr va ko'povozli ijrochilik jamoalarning tashkil topishi bilan bog'liqligini ko'ramiz.

Xor – (yunoncha: choros – davra o'yin qo'shig'i) antik davr teatr tomoshalarining jamoaviy ishtirokchisi; birgalikda kuylab, raqsga tushib dramatik holatlarga, qahramonlar harakatiga izoh beradigan aktyorlar guruhi; xonandalar jamoasidir.

Respublikamizda xor san'ati XX asrning boshlaridan shakllanib, ikkinchi yarmidan ham mazmunan, ham shaklan rivojlanib bordi. 60-80-yillarda ushbu san'atning keng rivojlanishi, uning har xil turlarini rivojlanishiga olib keldi. Jumladan, professional xor kapellasi, havaskor xor jamoalari, bolalar va o'quv xorlarining tashkil etilishi, xor musiqasining rang-barangligi, ularning tarkibi kengayishi, xor dirijyorligi ixtisosligi o'quv jarayoniga kiritilishi shular jumlasidandir.

Respublikamizda xor san'ati 70 yil davomida o'zbek musiqasi bilan o'zaro uyg'unlikda o'sib bordi. Qadimiy milliy musiqamizdagi boy badiiy-tasviriy vositalar bilan bir qatorda, rus va yevropa xalqlari ilg'or klassik kompozitorlari erishgan ulkan ijodiy muvaffaqiyatlar, yetuk jahon,

ayniqsa, rus xor jamoalarining faoliyatlari, yangi janr va turlarini o'zlashtirish natijasida o'zbek musiqa san'ati, uning musiqa ijrochiligining tarkibiy qismi bo'lmish – xor san'ati yana ham yuksak darajaga ko'tarildi.[3, B.7;]

O'zbekiston hududida ilk bor professional xor jamoasi – xor kapellasi (kapella – ko'p ovozli jo'rsiz xor jamoasi) 1952 yili o'zbek davlat filarmoniyasi qoshida tashkil etildi. Akademik xor kapellasi nomini olgan jamoa tarkibida 67 kishi bo'lgan, uning badiiy rahbari S.A.Valenkov (1906-1969) va xormeyasteri etib A.Sultonov (o'sha yilda u Toshkent davlat konservatoriyasi talabasi) tayinlangan edilar. Aynan shu davrdan boshlab xor ijrochiligi maxsus musiqa ta'lim tizimiga kiritiladi; professional jamoalar qatorida o'quv, havaskorlik, bolalar xorlari keng rivoj topadi. 1957-yili kapellaning badiiy rahbari va bosh xormeysteri qilib A.Sultonov, xormeyster B.Umidjonovlar tayinlanadi. Ularning faoliyati kapellaning yo'nalishi va repertuari O'zbek milliy asarlariga qaratiladi. Jamoaning professional ijrochilik mahorati o'sib bordi. Shuni ham alohida ta'kidlashimiz kerakki, xor kapellasining tashkil etilishi kompozitor M.Burxonov ijodi bilan ham bog'liq bo'lgan. Sababi shuki, aynan shu yillar M.Burxonov to'rtovozli xor uchun original asarlar – qayta ishlangan xalq qo'shiqlari yaratadi va ular xor jamoasining repertuaridan salmoqli o'rin egallaydi.

M.Burxonovning xalq qo'shiqlarini xor uchun qayta ishlashi muhim hodisa bo'lgan deb bemalol ayta olamiz. Uning ijodidagi ushbu tajribasi, jo'rsiz xor uchun qayta ishlagan oltita xalq qo'shiqlari tez orada shuxrat qozonadi va hozirgi kungacha jamoalar repertuaridan o'rin olgandir.

Shuni ham aytib o'tishimiz lozimki, O'zbekistonda milliy professional xor san'ati yuzaga kelishida 1961-yili respublika televidenie va radiosi qoshida tashkil qilingan B.Umidjonov rahbarligidagi xor jamoasi muhim hissa qo'shdi. O'zbekiston xalq artisti, kompozitor B.Umidjonov xor jamoasining rahbarigina bo'lib qolmay, ayni paytda uning ijodiy boyligini oshirishda O'rta Osiyo xalqlarining 70 dan ortiq original va qayta ishlagan qo'shiqlari bilan ulkan hissa qo'shgan hamdir. Bu xor jamoasi televidenie va radio orqali xor san'atini aktiv targ'ib qildi. Faol konsert dasturlari va xor musiqasi targ'ibotchiligi uchun 1982 – yilda O'zbekiston televidenie va radiosi xori O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xor jamoasi nomiga sazovor bo'ldi.

Ushbu yillarda o'zbek kompozitorlarining xor uchun yozgan asarlarining milliylik bilan yo'g'rilgan mazmuni va uslubi badiiylik jihatidan yetarli darajada baland pog'onaga ko'tarilgan.

Bu esa turli-tuman, keng va o'ziga xos vokal-xor asarlarini, xor yozuv malakalarini va badiiy o'ychanlikni o'zida namoyon etadi. (2, B.19;]

Keyingi yillarda respublikamizda bolalar xori ham keng rivojlandi. Respublikamizda har yili o'tkaziladigan "San'at bayrami va ko'rik tanlov"larida bolalar xor jamoalari keng jalb qilindi va faol ishtirok etmoqdalar.

O'zbekistonda yetakchi bolalar xor jamoalaridan biri O'zbekiston xalq artisti Sh.Yormatov rahbarligidagi O'zbekiston televidenie va radiosining "Bulbulcha" milliy bolalar xoridir. Bu xor jamoasi Moskva, Ozarbayjon, Turkiya, Finlandiya va boshqa bir qator xorijiy davlatlarda o'z ijrochilik mahoratini muvaffaqiyat bilan namoyish qilgan. Hozirgi davrda ko'pgina umumta'lim maktablarida, musiqa va san'at maktablarida, musiqa, san'at va pedagogika kollejlarda, pedagogika universitetlarida, Toshkent davlat San'at va Madaniyat institutida, O'zbekiston davlat Konservatoriyasida vokal-xor jamoalari mavjud.

Bir ovozli xor bilan bir qatorda ko'p ovozli xor san'ati respublikamizga XX asrning 20-30-yillaridan boshlab kirib kela boshlagan. Xor san'ati dastlab musiqali dramalar va komediyalar hamda operalarga moslab qayta ishlangan holda qo'llanilgan. Masalan: Tolibjon Sodiqovning "Layli va Majnun", S.Vasilenko va M.Ashrafiyning "Bo'ron", "Dilorom" operalari shular jumlasidandir. Bular o'zbek ko'p ovozli xor ijrochiligining rivojiga katta hissa qo'shgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, jamoa bo'lib kuylash tabiiy fiziologik, badiiy-ijrochilik, ijtimoiy moslashuvchanlik, ahloqiy psixologik sifatlarga ega. Aynan shu xususiyatlarga ko'ra xor ijrochiligi insoniyatning jamoaviy, didaktik, madaniy-ahloqiy, ruhiy hayotidagi san'at sifatidagi o'ziga xos o'rni belgilangan. Jamoa bo'lib kuylash ruhib kuylash ruhiy – ijodiy aloqaning tabiiy mukammal quroli bo'lib, u odamlarni beixtiyor birlashtiruvchi, barcha fiziologik, gumanistik, psixologik, etik va estetik birikmalarga ega bo'lib, ijodiy va ruhiy moslashgan shaxsni shakllanishiga turtki bo'ladi.

REFERENCES

1. Husnitdinova Yu. Xor dirijyorligi. "Paradigma", Toshkent – 2016.
2. Jumayeva L, N.Sharafiyeva. Xor sinfi va kamer xor. "Barkamol fayz media", Toshkent – 2017.
3. Kadirova S. Xorshunoslik. "Musiqa" nashriyoti, Toshkent – 2019.
4. Mirzayev Q. Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Toshkent – 2008.